

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Mavlonova	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	214
Z.M.Xursanova	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni	219
A.B.Mirzayev	
Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses	223
Sh.A.Pakirdinova	
Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lim jarayonida ahamiyati	226
Sh.A.Pakirdinova	
Comparative analysis of online and traditional classroom learning	231
M.M.Umaralieva	
Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools	235
Z.N.Usmonov	
Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi	239
A.T.Akbarov	
Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari	246
U.K.Rahmonov	
Musiq madaniyat darslarini olib borishda ta'lim beruvchining o'rni	252
U.K.Rahmonov	
Musiq darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati	256
V.Abdurakhmanov	
"The challenges of teaching english to international students"	261
D.Y.Irmatov	
Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lim yoshidagilar "Ontogonez"ga mansub bilimlar	265
Н.Соби́ров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин	
Инновационная педагогическая деятельность	269

IQTISODIYOT

M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadaliyeva	
Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi	273
K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadaliyeva	
Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbligi va konseptual asoslari	276

FALSAFA

N.M.Axmadiyev	
Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfaatlar to'qnashuvi	281
I.Toirov	
Milliy davlatchilik asoslarini mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatlarini	284
I.A.Nurmatova	
Jamiyat ma'naviy muhitida oila institutining roli	289

SIYOSAT

B.P.Zokirov	
Jinoiy aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari	293
S.M.Xoliqov	
Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari	301
B.P.Zokirov	
Xorijiy ilg'or tajribalar jinoiy aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida	304
S.M.Xoliqov	
Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar	314



UO'K: 78.07:37.091.3:004

**MUSIQA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHDA LOYIHA
TEXNOLOGIYASINI AHAMIYATI****ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПРИМЕНЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ МУЗЫКИ****THE IMPORTANCE OF PROJECT-BASED TECHNOLOGY IN APPLYING MODERN
TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS****Rahmonov Ulug'bek Karimovich** Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, O'rta
maxsus kasb-hunar ta'limi a'lochisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada musiqa darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasi haqida fikr yuritilib, bunda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublari joriy etish yo'li, shubhan birga musiqa ta'lim tizimini qo'llash haqida yoritishga e'tibor berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается проектная технология применения современных технологий на уроках музыки, пути внедрения передовых методов обучения с использованием современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий и одновременно проливают свет на применение системы музыкального образования уделяется внимание.

Abstract

This article discusses the project technology of using modern technologies in music lessons, ways of introducing advanced teaching methods using modern pedagogical and information and communication technologies and at the same time sheds light on the use of the music education system. . attention is paid to.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, iqtidorlik, ta'limiy, texnologiyalar, kompetentlik, tashabbuskorlik, egiluvchanlik, dinamiklik, konstruktivlik.

Ключевые слова: Креативность, талант, обучаемость, технологии, компетентность, уникальность, гибкость, динамизм, конструктивность.

Key words: Creativity, talent, learning ability, technology, competence, initiative, flexibility, dynamism, constructiveness.

KIRISH

Dunyo miqyosida bugungi kunda bo'lajak mutaxassislar uchun sivilizatsiya yutuqlaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim mazmunini umumevropa xalqaro standartlari asosida tashkil etish muhim o'rin egallamoqda. Umumevropa xalkaro standartlariga asosan musiqa ta'limi darslarini xalqaro darajaga ko'tarish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublari joriy etish yo'li bilan musiqa ta'lim darslarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda musiqa ta'limini chuqur o'qitishga keng e'tibor qaratilib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" kabi vazifalar belgilangan. Bunda, musiqa ta'limi darslari orqali faoliyat motivlari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishni qo'llash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arbda 1970 yillar oxirlaridan, mamlakatimizda esa mustaqillikka erishilganidan so'ng olimlar tomonidan maxsus o'rganila boshlandi. Jahon pedagogik-

PEDAGOGIKA

ilmiy jamoatchiligining mavzuga qiziqishi maxsus innovatsion xizmat, nashriyot, jumallarda innovatsion maqolalar ko'rinishida bo'lyapdi. Xususan, YuNESKO qoshida ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, jahonning turli mamlakatlaridagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda, pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

XX asr boshlarida yangi bilim sohasi - yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi. U mahsulot ishlab chikarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgana boshladi. Yangiliklarni kiritish haqidagi fan - innovatika - firmalarning yangi reja, xizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish faoliyatiga talablarni keskin oshib borishi aks ettirilgan holda paydo bo'ldi. O'z davri uchun yangi bo'lgan pedagogik qarashlari keng tarqaldi. Mazkur jaryonlarda soha mutaxassislar e'tibori quyidagi ikki asosiy yo'nalishga, ya'ni:

- 1) yangi pedagogik tizimlar va ularning qismlarini ta'lim amaliyotiga joriy etish;
- 2) ta'lim sohasida yangi boshqaruv texnologiyalarini va dasturlashgan tizimlarni joriy etishga qaratildi.

Ta'lim orqali umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda bilimlarni egallashga ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan talablarni shakllantirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish, bu jarayon orqali ijodkorlikni va iqtidorlikni yuzaga chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratishda ta'limiy texnologiyalarning o'rni beqiyos. Shu bois, bugungi tezkor o'zgaruvchan sharoit ta'lim orqali ta'lim oluvchilarini kompetentlik, tashabbuskorlik, egiluvchanlik, dinamiklik, konstruktivlik va yangilikka intiluvchanlik kabi sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Jumladan musiqa ta'lim orqali ta'lim oluvchi butun hayoti davomida mustaqil ta'lim olishga intiluvchan, ilg'or texnologiyalarni egallagan va ulardan foydalanishni tushungan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijtimoiy hamda bo'lajak kasbiy muhitga moslashuvchan, kutilmagan vaziyatlarga tayyor va ulardan tez chiqa oladigan bo'ladi.

Musiqa ta'limida loyiha texnologiyasining ta'lim jarayonida ta'minlanishi natijasida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi mahsuldor faoliyat sodir bo'ladi. Mazkur faoliyat natijasida ta'lim oluvchi o'z faoliyatidan qoniqish xissini boshidan kechiradi. Chunki, loyiha ustida ishlash jarayonida ta'lim oluvchi o'z-o'zining faoliyatini rejalashtirishga, tashkil qilishga o'rganadi, muvaffaqiyatni xis etadi. Loyiha texnologiyasi XX asrning 20-yillarida AQShda paydo bo'lib, unga insonparvarlik pedagogikasining asosiy qirralaridan biri sifatida qarala boshlandi. Uni ilk bor loyiha metodi yoki muammoli metod sifatida ta'lim jarayoniga tatbiq qilishdi. Mazkur texnologiyaning asosiy g'oyalari amerikalik pedagog olim Jon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Olimlarning fikricha, loyiha texnologiyasi tahsil oluvchilarning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayoniga tatbiq qilinishi va ta'lim sub'ektlarining o'quv jarayonidagi faoliyatini maqsadli yo'naltirishga mo'ljallanishi lozim edi. O'quv jarayonidagi didaktik paradigma aniq hayotdan olingan vaziyatli muammo bo'lishi va ushbu muammoning yechimi jamoaviy tarzda yoki kichik guruhlarda fan yutuqlaridan foydalanib, mustaqil topilishi, muayyan natijani qo'lga kiritishga xizmat kilishi lozim. Bunda muammo va uning yechimi yaxlit holatda loyihalash faoliyatidan iborat bulishi zarur. Loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish tahsil oluvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Ta'lim jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratiladi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifalari shakllantiriladi. Binobarin, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida loyiha texnologiyasini takomillashtirishga muhim e'tibor berilayotgani alohida dolzarblik kasb etib, ta'lim jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini kengaytiradi.

Musiqa ta'limini o'qitishda mazkur texnologiya ta'lim beruvchining ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi va musiqa ta'limini o'qitishda samarali natijalarni beradi. Musiqa ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanish to'g'risidagi bilimlar poydevori quyilishi, pedagog-tadqiqotchi sifatida o'z-o'zini takomillashtirishga intilish motivatsiyasi ilmiy shakllanishi lozim. Rus olimi V.P.Bespalkoning fikriga ko'ra "Ta'limda qo'llaniladigan yangi mohiyatdagi didaktik texnologiyalar ma'lum bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur paradigma yangi

ilmiy va amaliy pedagogik faoliyat tizimini yaratib beradi. Uning asosida ta'lim oluvchi atrof - muhitda yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish uchun tayyor holatga keltiriladi". Demak, texnologiya faoliyatni natijaga olib keluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda har qanday loyiha texnologiyani tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Bugungi kunda musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchi o'z pedagogik faoliyatini pedagogik innovatsiya asosida tashkil eta bilishi hamda boshqarishi, o'z pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni ishlab chiqqan bo'lishi, ularni kundalik faoliyatida ta'lim jarayoniga tatbiq eta olishi, pedagogik texnikaga ega bo'lishi, o'z faoliyatini loyihalashtira olishi, xorijiy tilni o'qitishning bosqichma-bosqich yaxlit modelini yarata olishi zarur. Demak, musiqa ta'limi o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan turli yangi mohiyatdagi vazifalar qo'lam keng bo'lib, ularning barchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish lozim. O'zbekistonda ta'lim tizimining dunyoviy tavsifga ega ekanligi, bilimli bo'lish va shaxs iste'dodlarini rag'batlantirish kabi tamoyillar shuni taqozo etadi.

Musiqa ta'limi mutaxassislarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish har jihatdan ularning kelgusi faoliyatlarida ilg'or, sarmahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka uch bo'lishini ta'minlaydi. Bunda faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiya qismlardan tashkil topadi. O'quv fanlari, ularning maqsadi, tarkibi aniqlangach, o'quv dasturlari tuziladi. Dasturlar asosida darsliklar yoziladi. Musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchi butun hayoti davomida mustaqil ta'lim olishga intiluvchan, zamonaviy texnologiyalarni egallagan va ulardan foydalanishni tushunishi, mustaqil qaror qabul qila oladigan ijtimoiy va bo'lajak kasbiy muhitga moslashuvchi, hayajon holatlarga tayyor va ulardan tez chiqa oladigan bo'lishi lozim. Bu jarayonlar musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish ularning bilim egallashga bo'lgan motivatsiyasining takomillashuviga olib keladi.

O'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanish musiqa ta'limini o'qitish aspektida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida loyiha texnologiyasining qo'llanish taraqqiyoti o'z tarixiga ega bo'lib, bunda amerikalik olim J.Dyuining pragmatizm nazariyasi alohida o'rin egallaydi. O'zbek olimi J.Buronov "...hamkorlikdagi ta'lim, tahsil oluvchi, o'qituvchi va ma'muriyat orasida do'stona munosabat ustuvorligi asosida sifatli ta'lim berish jarayoni vujudga keladi" - deb ta'rif bergan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchilarini loyiha texnologiyasi asosida o'quv jarayoniga tayyorlashda ularda kelgusi kasbiy faoliyati tarkibidagi san'atga oid kompetensiyalar asosida ijtimoiy-siyosiy va publitsistik mavzulardagi muayyan musiqalarni anglash, xorij musiqasi, ona tilidagi qo'shiq va ashulalarni kompetensiyani farqlash, san'at vakillari bilan muloqot qilishga qaratilgan ijtimoiy kompetensiyalar namoyon bo'ladi. Bularning barchasi didaktik mazmunda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini loyiha texnologiyasi asosida o'quv jarayoniga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur kompetensiyalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning bir komponenti sanaladi. Ularni rivojlantirish talabalarga musiqa ta'limida boshqa mamlakatlarning qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi va o'z navbatida, ijtimoiy-madaniy muloqot sharoitida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda loyiha texnologiyasidan biri bo'lmish - veb-kvest texnologiyasini qo'llash, nafaqat Internetdan ko'rsatilgan havolalar bo'yicha axborot to'plash, balki egallanayotgan kasb bilan bog'liq vazifalarga yechim topish uchun, uni tashkil qilish, tuzilmalarini belgilash va uni to'la idrok etishni nazarda tutadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda loyiha texnologiyasini qo'llash natijasida xorijiy musiqalaridagi autentik qo'llanmalardan foydalanish, talabalarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantirish, o'rganilayotgan o'quv qo'llanma bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash; bilish faolligini oshirish, shaxsiy, guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, musiqa ta'limini o'qitish jarayonida bevosita interfaollik, refleksiya uchun metakognitiv tajriba hamda qobiliyatni shakllantirish, har qanday ta'lim yo'nalishi doirasida mavzuviy yo'naltirilgan ta'lim o'zgaruvchanligini ta'minlash, nazariy va amaliy tavsifdagi fanlararo vazifalarni hal etish; retseptiv, produktiv nutqiy faoliyat va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, ta'lim jarayonida ijobiy xissiy munosabatni shakllantirish, o'quv qo'llanmalarini o'zlashtirish strategiyasining umumiy ko'nikma va malakalarini egallash imkonini beradi.

PEDAGOGIKA

Musiqa ta'limi sohasida esa loyiha texnologiyasining o'ziga xos an'analari, o'qish uslublari, o'qitish yoki o'qishni tashkil qilishning samaradorli tizimligi shakllangan bo'lib, musiqa ta'limini o'qitishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, musiqa ta'limi o'qituvchisi sifatida o'z kelajagini ko'radigan mutaxassislar uchun nihoyatda muhim. Musiqa ta'limini o'rgatishni yoki o'qishlarni tashkil qilishda loyiha texnologiyasini qo'llashning asosiy maqsadi sifatida san'at o'rganuvchilar, shuningdek talabalar tomonidan kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'lish ekanligi ba'zi mutaxassislar tomonidan alohida e'tirof etilgan.

Loyiha texnologiyasining o'quv jarayonida foydalanilishining afzalliklari mutaxassislar tomonidan samarali texnologiyalardan biri sifatida baholanishi bilan bir qatorda, unga nisbatan aniq qarashlar ham shakllangan bo'lib "birgalikda ta'lim olish nafaqat oson va qiziqarli, balki bir muncha samarali" - deya ta'riflar ham berilganligini ham qayd etish lozim.

Musiqa ta'limi o'qituvchilarini loyiha texnologiyasi asosida o'quv jarayoniga tayyorlash jarayoni quyidagilarga qaratiladi:

- talabalarda o'quv-bilish motivatsiyasini oshirish;
- talabalarda bilish faoliyatini rivojlantirish;
- taxsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi va keyingi

o'quv faoliyatiga ragbat sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqa ta'limi orqali ta'lim beruvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda loyiha texnologiyasi:

- talabalarda bilish faoliyatini rivojlantirish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kompyuter, Internet, elektron axborot resurslari imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; taqdim qilingan o'quv qo'llanmasidagi muhim g'oyalarni saralash, taxlil qilish, qiyoslash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

- dars samaradorligini oshirish, o'rganilayotgan o'quv fanini o'rganishga motivatsiyani innovatsion texnologiyalar orqali hosil qilish.

XULOSA

Shuni aytib o'tish joizki musiqa ta'limini o'qitish jarayonida loyiha texnologiyasini qo'llash malaka talablarida belgilangan ta'lim mazmuni, maqsadi va tarkibiy tuzilishi asosida tashkil etilishi, talabalarda musiqa ta'limi o'quv kursi asoslarining ilmiylik bo'laklari singdirilgan poydevorini shakllantirishi, o'quv faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirishi; talabalarda musiqa ta'limida chalish, nota nomi bilan kuylash. Qo'shiq aytish, nota yozish, tinglab tushunish, kuylash malakasini takomillashtirishi; ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalariga asos solishga qaratilgan bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmonov U. The role national music in the development of aesthetic competency of educators in preschool educational organizations through music education // American Journal of Open Access. Peer Reviewed Journals. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. ISSN (E): 2832-8019 Volume 17, Oct, 2023.

2. Rahmonov U. Pedagogical and psychological features of music education in children's education // We are congratulating you for the successfully published your research submission titled in journal "Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research" Volume 10, Issue 12. SJIF 2019: 4.702 2020: 4.737 2021: 5.071 2022: 4.919 2023: 6.980 18.12.2023.

3. Rahmonov u. musiqa ta'limi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning estetik kompetentligini rivojlantirishda milliy musiqa ohanglari bo'lqa tarbiyasidagi o'rni. oriental art and culture scientific-methodical journal published in volume 4 issue 5, october 2023 issn 2181-063x. scientific-methodical journal.

4. u.k.rahmonov. oriental art and culture scientific-methodical journal published in volume. musiqa ta'limi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning estetik kompetentligini rivojlantirishda milliy musiqa ohanglari bo'lqa tarbiyasidagi o'rni. 4 issue 5, october 2023 issn 2181-063x.

5. Rahmonov U. THE ROLE OF CULTURE AND IN PRESERVING AND ENRICHING OUR SPIRITUALITY // We are congratulating you for the successfully published your research submission titled in journal "Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research" Volume 11, Issue 02. Fev-2024 SJIF 2019: 4.702 2020: 4.737 2021: 5.071 2022: 4.919 2023: 6.980

asosda madaniyatini yuksaltirish. Volume 6, Issue 1, 2024. Data.14.06.2024/

6. A.R.Soliev. "Vatan tuyg'usi". BECT PUBLICATION. So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi ilmiy ommabop jurnali. 2022 yil. 12 iyun 2-son.

7. A.R.Soliev. A.Nurmuxammadjonov. "O'zbekiston Respublikasi madxiyasi tarixiga bir nazar". Uzluksiz ta'lim. Maxsus soni. ISSN-2091-5594. 2022 yil.

8. A.R.Soliev. "Musiqa ta'limida innovatsion g'oyalarni qo'llashda noan'anaviy darsliklarning o'rni. Ilmiy - amaliy anjuman. FDU. 5.10. 2022 yil.

9. Tursunova L. "The role of makom art in the spiritual upbringing of youth" akademica An international Multidisciplinary Research Journal. Pages 143

10.Tursunova L. "Tools influeng the formatin of the innhtellectual kulture of youth" International Journal of Akademik Pedagogikal Research (IJAPR). Pages 154.

11.Tursunova L. "The impac of the global environmenjt and its spiritual factors on the musikai culture of youth" the amerncan journal of social science and education innovations proudly presented to. Pages 145.